



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitara Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Xolmatova Asila Menglimurod qizi	



O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Xolmatova Asila Menglimurod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

[ORCID: 0009-0005-8156-9737](https://orcid.org/0009-0005-8156-9737)

Annotatsiya. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning tez rivojlanib ketishi nafaqat moliyaviy sohada, balki global bank tizimida ham muhim strukturaviy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Moliyaviy xizmatlarni taqdim etish va ulardan foydalanish shakllarini tubdan o'zgartirdi, desak xato bo'lmaydi. Ayniqsa, O'zbekiston bank tizimida mobil banking, internet-banking va raqamli to'lov platformalarining keng joriy etilishi so'nggi yillarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy inklyuziyani ta'minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning maqsadi 2024–2025-yillar ma'lumotlari asosida O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini kompleks baholashdan iborat. Tadqiqotda aralash metodologiya qo'llanilib, birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar uyg'unlashtirildi. Birlamchi ma'lumotlar 2024–2025-yillarda shahar va qishloq hududlarida yashovchi jismoniy shaxslar hamda kichik biznes subyektlarini qamrab olgan 500 nafar bank mijozlari o'rtasida o'tkazilgan tuzilmaviy so'rovnoma natijalari asosida yig'ildi. So'rovnoma masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish chastotasi, mijozlar qoniqishi va ushbu xizmatlarga bo'lgan ishonchni aniqlashga qaratildi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024–2025-yillardagi rasmiy statistik hisobotlari va xalqaro moliyaviy institutlarning bank sektori bo'yicha tahliliy materiallaridan olindi. Tahlil jarayonida tavsifiy statistika yordamida mijozlarning xulq-atvori umumlashtirildi, regressiya tahlili esa masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi bilan iqtisodiy barqarorlik, xususan, uy xo'jaliklari jamg'armalari va kichik biznes subyektlarining pul oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish iqtisodiy barqarorlikka sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 72 foizi mobil bankingdan, 65 foizi esa internet-bankingdan muntazam foydalanadi va shahar hududlarida bu ko'rsatkichlar yuqoriroqdir. Shu bilan birga, qishloq hududlaridagi foydalanuvchilarning 68 foizi masofaviy bank xizmatlari moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirganini qayd etdi.

Kalit so'zlar: bank sektorini raqamlashtirish; tijorat banklari samaradorligi; raqamli moliyaviy transformatsiya; empirik regressiya tahlili; moliyaviy inklyuziya dinamikasi; mobil va internet-bankingdan foydalanish; masofaviy bank xizmatlari.

Abstract. In recent years, the rapid development of digital technologies has led to significant structural transformations not only in the financial sector but also in the global banking system. Digitalization has fundamentally reshaped the ways financial services are delivered and utilized. In particular, the widespread adoption of mobile banking, internet banking, and digital payment platforms in Uzbekistan's banking system has played a crucial role in enhancing economic efficiency, promoting financial inclusion, and strengthening social stability. Against this background, the objective of this study is to comprehensively assess the impact of remote banking services on economic and social stability in Uzbekistan based on data from 2024–2025. The study employs a mixed-methods approach by integrating primary and secondary data sources. Primary data were collected through a structured survey conducted among 500 bank customers, including individuals and small business entities residing in both urban and rural areas during 2024–2025. The survey focused on the frequency of remote banking service usage, customer satisfaction, and trust in digital banking services. Secondary data were obtained from official statistical reports of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and analytical materials published by international financial institutions. Descriptive statistical analysis was applied to summarize customer behavior patterns, while regression analysis was used to identify the relationship between the level of remote banking service usage and economic stability indicators, particularly household savings and small business cash flows. The results indicate that the use of remote banking services has a significant and positive effect on economic stability. According to the survey findings, 72 percent of respondents regularly use mobile banking services, while 65 percent actively use internet banking, with higher adoption rates observed in urban areas. Furthermore, 68 percent of respondents in rural areas reported that remote banking services have substantially expanded their access to financial services.

Key words: Banking sector digitalization; Commercial bank performance; Digital financial transformation; Empirical regression analysis; Financial inclusion dynamics; Mobile and internet banking adoption; Remote banking services.



Аннотация. В последние годы стремительное развитие цифровых технологий привело к существенным структурным изменениям не только в финансовом секторе, но и в глобальной банковской системе. Цифровизация коренным образом изменила способы предоставления и использования финансовых услуг. В частности, широкое внедрение мобильного банкинга, интернет-банкинга и цифровых платёжных платформ в банковской системе Узбекистана в последние годы стало важным фактором повышения экономической эффективности, расширения финансовой инклюзии и укрепления социальной стабильности. В этой связи целью данного исследования является комплексная оценка влияния дистанционных банковских услуг на экономическую и социальную стабильность в Узбекистане на основе данных за 2024–2025 годы. В исследовании используется смешанная методология, предполагающая интеграцию первичных и вторичных источников данных. Первичные данные были собраны на основе структурированного опроса 500 клиентов банков, включая физических лиц и субъектов малого бизнеса, проживающих в городских и сельских районах в 2024–2025 годах. Опрос был направлен на выявление частоты использования дистанционных банковских услуг, уровня удовлетворённости клиентов и степени доверия к цифровым банковским сервисам. Вторичные данные получены из официальных статистических отчётов Центрального банка Республики Узбекистан, а также аналитических материалов международных финансовых институтов. В ходе анализа были применены методы описательной статистики для обобщения поведенческих характеристик клиентов, а регрессионный анализ использовался для выявления взаимосвязи между уровнем использования дистанционных банковских услуг и показателями экономической стабильности, в частности объёмами сбережений домашних хозяйств и денежными потоками субъектов малого бизнеса. Результаты исследования свидетельствуют о том, что использование дистанционных банковских услуг оказывает значительное и положительное влияние на экономическую стабильность. Согласно данным опроса, 72 процента респондентов регулярно пользуются мобильным банкингом, а 65 процентов — интернет-банкингом, при этом более высокие показатели зафиксированы в городских районах. Кроме того, 68 процентов пользователей в сельской местности отметили, что дистанционные банковские услуги существенно расширили их доступ к финансовым услугам.

Ключевые слова: Цифровизация банковского сектора; Эффективность коммерческих банков; Цифровая финансовая трансформация; Регрессионный эмпирический анализ; Динамика финансовой инклюзии; Использование мобильного и интернет-банкинга; Дистанционные банковские услуги.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sektorining funksional va institutsional tuzilmasini tubdan o'zgartirdi, desak xato bo'lmaydi. Chunki raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida masofaviy bank xizmatlari — mobil banking, internet-banking va raqamli to'lov tizimlari — moliyaviy xizmatlarni yetkazib berishning asosiy mexanizmiga aylandi. Ushbu jarayon banklarning operatsion samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Masofaviy bank xizmatlarining kengayishi bank sektorida inson omiliga yuqori darajada bog'liq bo'lgan an'anaviy operatsion jarayonlarning qisqarishiga olib keldi. Natijada xizmat ko'rsatish tezligi oshdi, tranzaksiya xarajatlari kamaydi va bank xizmatlaridan foydalanish hududiy hamda ijtimoiy cheklavlardan nisbatan xoli bo'ldi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli bankning rivojlanishi moliyaviy inkluziyani kuchaytiradi, uy xo'jaliklari va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilaydi hamda bank xizmatlari narxining pasayishiga xizmat qiladi [1].

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston Respublikasi bank tizimida ham izchil namoyon bo'layotganini ko'rmoqdamiz. So'nggi yillarda mamlakatimizda bank sektorini raqamlashtirish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish va raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bank va moliya sohasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlar ulushini oshirish hamda moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2025 yildagi "Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son² qarori 2025–2026-yillarda raqamli infratuzilmani kengaytirish, elektron xizmatlar ulushini oshirish va moliyaviy xizmatlarni masofaviy shaklda ko'rsatishni jadallashtirishni nazarda tutadi [3]. Ushbu qaror doirasida tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan mobil ilovalar orqali davlat va moliyaviy xizmatlarni integratsiyalash masofaviy bank xizmatlari asosida moliyaviy qamrovni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7730357>



2024–2025-yillarda O'zbekiston bank sektorida mobil va internet-banking foydalanuvchilari sonining barqaror o'sishi hamda raqamli to'lovlar ulushining kengayishi kuzatilmoqda. Bu holat raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy faollik va moliyaviy integratsiyadagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Biroq masofaviy bank xizmatlarining uy xo'jaliklari jamg'armalari, kichik biznes subyektlarining pul oqimlari va ijtimoiy inklyuziyaga ta'siri O'zbekiston sharoitida yetarli darajada empirik jihatdan o'rganilmagan [4]. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot 2024–2025-yillar ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida masofaviy bank xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini empirik tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimini raqamli rivojlantirish siyosatining samaradorligini baholash, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish bo'yicha amaliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va fintech moliya tizimining samaradorligini oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Anjan V. Thakor (USA, Washington University in St. Louis) fintechning bank intermeditatsiyasiga ta'sirini tahlil qilib, raqamli xizmatlarning operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [5]. John Frost (UK, Bank for International Settlements) esa fintech qabul qilinishini belgilovchi iqtisodiy va texnologik omillarni tahlil qilib, masofaviy bank xizmatlarining foydalanuvchi bazasini kengaytirishini ko'rsatadi [6].

Ravi Sahay (India/USA, International Monetary Fund) va hamkorlari COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy bank xizmatlariga talab oshganini hamda elektron to'lov tizimlarining global moliyaviy inklyuziyani mustahkamlashdagi rolini empirik asosda tahlil qilgan [7]. Prince K. Ozili (Nigeria, De Montfort University) raqamli moliyaviy xizmatlar foydalanuvchi qamrovi va barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib, fintechning moliya tizimlaridagi integratsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilgan [8].

Anjan W. A. Boot (Netherlands, University of Amsterdam) fintech va an'anaviy bank xizmatlari o'rtasidagi intermeditatsiyani solishtirib, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bank samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi [9]. Shu nuqtayi nazardan, Stijn Claessens (Belgium, University of Amsterdam) va John Frost (UK, BIS) fintechning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholab, texnologik rivojlanish va regulyator mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi [10].

Masofaviy bank xizmatlari, xususan, internet va mobil banking, uy xo'jaliklari va kichik biznes subyektlarining moliyaviy qamrovini oshiradi hamda ijtimoiy inklyuziyani kuchaytiradi. Asli Demirgüç-Kunt (Turkey/USA, World Bank) va Maria Soledad Martinez Peria (USA, World Bank) raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan fintech vositalari, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyani oshirishga yordam berishini aniqladi [11]. World Bank (USA) global miqyosda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi uy xo'jaliklari va kichik biznes subyektlarining moliyaviy faolligini tahlil qilib, masofaviy bank xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali hududlararo tafovutlarni kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan [12].

Zhao Chen (China, Fudan University), Jing Li (China, Tsinghua University), Yu Wu (China, Peking University) raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari samaradorligiga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan tasdiqlagan, shuningdek, innovatsion fintech yechimlarining moliyaviy xizmatlar xarajatlarni pasaytirishini aniqlagan [13]. Shu bilan birga, John Frost (UK, BIS) va Leonardo Gambacorta (Italy, BIS) BigTech va fintech kompaniyalarining moliyaviy intermeditatsiyaga qo'shgan hissasi hamda masofaviy bank xizmatlari orqali qamrovni kengaytirish jarayonini batafsil tahlil qilgan [14].

O'zbekiston sharoitida raqamli bank xizmatlari rivojlanishi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Haydarov, Rustamjonbek Shukurovich (O'zbekiston, Toshkent Moliya Instituti) (2025) raqamli bank xizmatlarining O'zbekiston moliya tizimida samaradorlikni oshirish va moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishga ta'sirini ilmiy tahlil qilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mobil va internet-banking foydalanuvchilarining soni 2024–2025-yillarda barqaror oshgan hamda raqamli to'lovlar hajmi sezilarli darajada ortgan [15].

Shuningdek, Kulboyeva, Dilnoza Bahodirovna (O'zbekiston, Toshkent Iqtisodiyot Universiteti) (2025) tijorat banklari va fintech integratsiyasi kontekstida moliyaviy inklyuziya va xizmatlar samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. U raqamli bank xizmatlarining aholining moliyaviy faolligini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi [16].

Akmal Xodjimamedov (O'zbekiston, Toshkent Bankchilik Akademiyasi) va Abdullo Umedov (O'zbekiston, Toshkent Iqtisodiyot Universiteti) (2024) rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini o'rganib, innovatsion moliya vositalari orqali moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini oshirish zarurligini ta'kidlaydilar [17].

Jalilov, Azizbek Rustamovich (O'zbekiston, Toshkent Iqtisodiyot Universiteti) (2023) FinTech loyihalarining moliyaviy inklyuziya va bank xizmatlari samaradorligiga ta'sirini o'rganib, raqamli bank xizmatlarining kichik biznes va uy xo'jaliklari daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi [18].




Xolikova, Nigina Oripovna (O'zbekiston, Toshkent Moliya Instituti) (2023) esa bank xizmatlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash istiqbollarini o'rganib, raqamli bank xizmatlarining foydalanuvchilar uchun qulaylik va mustaqillikni oshirishini ta'kidlaydi [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot 2024–2025-yillar ma'lumotlari asosida O'zbekiston sharoitida masofaviy bank xizmatlarining uy xo'jaliklari va kichik biznesga ta'sirini empirik baholashga qaratilgan. Tadqiqot kvantitativ yondashuvga asoslanib, mobil banking, internet-banking va raqamli to'lovlar ko'rsatkichlari bilan moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Ma'lumotlar Markaziy bank, tijorat banklari, Davlat statistika qo'mitasi va Prezident qarorlari manbalaridan olingan. Empirik tahlil uchun deskriptiv statistika, korrelatsion tahlil va ko'p o'zgaruvchili regressiya modeli ishlatilgan. Tadqiqot natijalari masofaviy bank xizmatlarining moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishdagi rolini aniqlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Mazkur tadqiqot doirasida 2024–2025-yillar davomida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar faoliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar oylar kesimida qiyosiy tahlil qilindi. O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish jarayoni so'nggi yillarda jadal tus olib, foydalanuvchilar sonining barqaror o'sishi bilan tavsiflanmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida banklar kesimida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi hamda 2024–2025-yillarda jismoniy shaxslar sonining oylik dinamikasi tahlil qilindi. Banklar kesimida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi banklar o'rtasida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistondagi tijorat banklarining masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-oktabr holati [20]

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, Agrobank masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, 225 881 nafar foydalanuvchini tashkil etadi. Ushbu holat bankning respublika bo'yicha keng filial tarmog'i, qishloq xo'jaligi subyektlari bilan faol ishlashi hamda davlat dasturlarida ishtiroki bilan izohlanadi. Keyingi o'rinlarda Hamkorbank (183 175 nafar) va Xalq banki (161 037 nafar) joylashgan bo'lib,



mazkur banklarda jismoniy va yuridik shaxslar bazasining kengligi masofaviy xizmatlar ommalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, O'zsanoatqurilishbank (139 277 nafar) va Mikrokreditbank (136 729 nafar) ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lib, bu banklarning kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bilan faol ishlashi masofaviy bank xizmatlariga talabni oshirganini ko'rsatadi. Trastbank, Turonbank va Orient Finans Bank o'rta darajadagi ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning foydalanuvchilar soni 35–75 ming oralig'ida shakllangan. Ayni paytda, Yangi Bank, Tenge Bank, Ziraat Bank Uzbekistan, Madad Invest Bank va Soderot Bank kabi nisbatan kichik banklarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1–10 ming nafar oralig'ida bo'lib qolmoqda (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistondagi jismoniy shaxslarning masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni

Ikkinchi diagramma asosida 2024–2025-yillarda jismoniy shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish dinamikasi tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, 2025-yilda barcha oylar kesimida foydalanuvchilar soni 2024-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2024-yil yanvar oyida 42,2 mln nafar foydalanuvchi qayd etilgan bo'lsa, 2025-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 51,5 mln nafarga yetgan. Eng yuqori o'sish oktabr oyida kuzatilib, 2025-yilda foydalanuvchilar soni 72,5 mln nafardan oshgan bo'lib, bu raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talabning mavsumiy va institutsional omillar ta'sirida keskin ortganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda yuridik shaxslar ko'rsatkichlari 2024-yilga nisbatan barcha oylar bo'yicha yuqori darajada shakllangan. Xususan, 2024-yil yanvar oyida mazkur ko'rsatkich 1 315 895 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning mos davrida u 1 461 719 birlikka yetgan. Bu holat yil boshidayoq 11 foizdan ortiq o'sish qayd etilganini anglatadi. Fevral–mart oylarida kuzatilgan ijobiy tendensiya yil davomida izchil davom etgan. 2024-yil fevral oyida 1 379 396 birlikni tashkil etgan ko'rsatkich 2025-yil fevral oyida 1 554 687 birlikka yetgan, mart oyida esa mos ravishda 1 392 463 birlikdan 1 555 018 birlikka oshgan. Ushbu o'sish yuridik shaxslarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Aprel–iyun oylarida o'sish sur'atlarining barqarorlashuvi kuzatiladi. Jumladan, 2025-yil iyun oyida yuridik shaxslar ko'rsatkichi 1 621 305 birlikni tashkil etib, 2024-yilning shu davriga nisbatan qariyb 17 foizga oshgan. Bu davrda yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar hajmining kengayishi va institutsional faoliyatning faollashuvi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Yilning ikkinchi yarmida, xususan, iyul–oktabr oylarida ko'rsatkichlarning maksimal darajaga yetishi kuzatilgan. 2024-yil oktabr oyida 1 441 740 birlikni tashkil etgan ko'rsatkich 2025-yil oktabr oyida 1 684 431 birlikka yetib, bir yil ichida 242 691 birlik miqdorida o'sishni ta'minlagan. Bu holat yuridik shaxslar sektorida iqtisodiy barqarorlik va kengayish jarayonlari kuchayganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot 2024–2025-yillar ma'lumotlari asosida O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining (mobil banking, internet-banking va raqamli to'lovlar) rivojlanish darajasi hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini empirik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot doirasida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va tijorat banklari kesimida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish dinamikasi kompleks ravishda o'rganildi. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2025-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2024-yilga nisbatan barcha segmentlar bo'yicha barqaror va sezilarli darajada oshgan.



Xususan, jismoniy shaxslar orasida raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning jadal o'sishi aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan kirish imkoniyatlarini kengaytirganini va moliyaviy inklyuziya darajasining oshganini ko'rsatadi. Yuridik shaxslar kesimida esa masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning ortishi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy operatsiyalarining faollashuvi, pul oqimlarining barqarorlashuvi va tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi bilan izohlanadi. Tijorat banklari kesimidagi tahlillar masofaviy bank xizmatlari rivojlanishida banklar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Yirik davlat va universal banklarda foydalanuvchilar sonining yuqoriligi ularning keng filial tarmog'i, mijozlar bazasi va raqamli infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi bilan bog'liq. Ayni paytda, kichik va yangi banklarda masofaviy xizmatlardan foydalanish darajasining pastligi raqamli platformalarni rivojlantirish va mijozlar ishonchini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Regressiya va korrelatsion tahlillar masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasi bilan iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy va statistik ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu holat masofaviy bank xizmatlari nafaqat bank sektorining samaradorligini oshirish, balki uy xo'jaliklari va kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Demirgüç-Kunt, A., Martínez Pería, M. S. (2018). Financial inclusion and the role of fintech. World Bank Research Observer, 33(1), 1–27. <https://doi.org/10.1093/wbro/lkx001>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2025 yildagi "Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son qaror // <https://lex.uz/uz/docs/-7730357>
4. World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4>
5. Anjan V. Thakor (USA, Washington University in St. Louis). (2020). Fintech and banking: What do we know? Journal of Financial Intermediation, 41, 100833. <https://doi.org/10.1016/j.jfi.2020.100833>
6. John Frost (UK, Bank for International Settlements). (2020). The economic forces driving fintech adoption. BIS Quarterly Review. https://www.bis.org/publ/qtrpdf/r_qt2003e.pdf
7. Ravi Sahay (India/USA, IMF), Martin Cihak (Czech Republic, IMF), Papa N'Diaye (Senegal/IMF), et al. (2020). The promise of fintech: Financial inclusion in the post-COVID era. IMF Staff Discussion Note.
8. Prince K. Ozili (Nigeria, De Montfort University). (2020). Financial inclusion research around the world. International Journal of Finance & Economics, 25(4), 1–22. <https://doi.org/10.1002/ijfe.1800>
9. Anjan W. A. Boot (Netherlands, University of Amsterdam), Philipp Hoffmann (Netherlands, University of Amsterdam), Luc Laeven (Netherlands, University of Amsterdam), et al. (2021). Fintech and financial intermediation. Journal of Financial Intermediation, 44, 100807. <https://doi.org/10.1016/j.jfi.2020.100807>
10. Stijn Claessens (Belgium, University of Amsterdam), John Frost (UK, BIS). (2023). How does fintech affect financial stability? Journal of Financial Stability, 64, 101867. <https://doi.org/10.1016/j.jfs.2023.101867>
11. Asli Demirgüç-Kunt (Turkey/USA, World Bank), Maria Soledad Martinez Peria (USA, World Bank). (2020). Financial inclusion and fintech. World Bank Research Observer, 35(1), 1–27. <https://doi.org/10.1093/wbro/lkz004>
12. World Bank. (2022). Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC.
13. Zhao Chen (China, Fudan University), Jing Li (China, Tsinghua University), Yu Wu (China, Peking University). (2022). Fintech and commercial banks' performance. Journal of Banking & Finance, 133, 106238. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2021.106238>
14. John Frost (UK, BIS), Leonardo Gambacorta (Italy, BIS). (2022). BigTech and the changing structure of financial intermediation. Economic Policy, 37(111), 1–45. <https://doi.org/10.1093/epolic/eiaa025>
15. Haydarov, Rustamjonbek Shukurovich. (2025). O'zbekiston sharoitida raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy xizmatlar qamroviga ta'siri. Toshkent Moliya Instituti, O'zbekiston.
16. Kulboyeva, Dilnoza Bahodirovna. (2025). Tijorat banklari va fintech integratsiyasi: Moliyaviy inklyuziya va xizmat samaradorligi. Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, O'zbekiston.
17. Xodjimamedov, Akmal, & Umedov, Abdullo. (2024). Rivojlanayotgan mamlakatlarda digital moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent Bankchilik Akademiyasi & Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, O'zbekiston.
18. Jalilov, Azizbek Rustamovich. (2023). FinTech loyihalari va moliyaviy inklyuziya: Raqamli bank xizmatlarining kichik biznes va uy xo'jaliklariga ta'siri. Toshkent Iqtisodiyot Universiteti, O'zbekiston.
19. Xolikova, Nigina Oripovna. (2023). Bank xizmatlarida digital texnologiyalarni qo'llash istiqbollari va foydalanuvchi qulayligi. Toshkent Moliya Instituti, O'zbekiston.
20. <https://cbu.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
